

МУГАЛЛИМ ХАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ



ISSN 2181-7138

№ 6/7 - 2022 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:

А. Тилегенов

Редакция аъзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ

Нагмет АЙЫМБЕТОВ

Байрамбай ОТЕМУРАТОВ

Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ

Алишер АЛЛАМУРАТОВ

Дилшодхўжа АЙТБАЕВ

Тўлкин АЛЛАЁРОВ

Умида БАҲАДИРОВА

Фархад БАБАШЕВ

Аскар ДЖУМАШЕВ

Гўлшара ЖУМАШЕВА

Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ

Аскарбай НИЯЗОВ

Сабит НУРЖАНОВ

Уролбой МИРСАНОВ

Бахтиёр РАХИМОВ

Арзы ПАЗЫЛОВ

Барлықбай ПРЕНОВ

Қаҳҳор ТУРСУНОВ

Тажибай УТЕБАЕВ

Саодат ТОШТЕМИРОВА

Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ

Ризамат ШОДИЕВ

Зафар ЧОРШАНИЕВ

Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ

Гулрухсор ЭРГАШЕВА

Шўлкемлестириўшилер:

Қарақалпақстан Республикасы

Халық билимлендириў

Министрлиги, ӨЗПНИИ

Қарақалпақстан филиалы

Өзбекстан Республикасы

Министрлер Кабинети

жанындағы Жоқарғы

Аттестация Комиссиясы

Президиумының 25.10.2007

жыл (№138) қарары менен

дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз хәм хабар агентлиги тәрешинен 2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды №01-044-санлы гуўалық берилген.

Мәңзил: Нөкис қаласы,

Ерназар Алакөз көшеси №54

Тел.: 224-23-00

e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,

mugallim-pednauk@umail.uz

www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналға келген мақалаларға муўия қайтарылмайды, журналда жарыяланган мақалалардан алынган үзінділер «Мугаллим хәм үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шарт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етилиди. Мақалаларда келтирилген маалыматларға автор муўиякер.

МАЗМУН

ТИЛ ҲАМ ЭДЕБИЯТ

Бабаева Ш.Б. Метод моделирования - прогнатический аспект в лингвистике.....	3
--	---

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Norliyev A. Boshlang'ich sinflarda adabiy ta'limning umumnazariy masalalari va o'quvchilarda intellektual anglash malakalarini shakllantirish	10
Pardayeva K.Z., Zamonova Sh.S. Bo'lajak o'qituvchilarning mediakompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari	14
Sayfullaev G.M., Sattorova D., Xaitova N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy bilimlar haqidagi tasavvur va tushunchalarni shakllantirish hamda rivojlantirishning uslubiy asoslari	17
Ibrohimova M.F. Boshlang'ich sinflarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda grafik va jadval ko'rinishidagi topshiriqlardan foydalanish	21
Olloqova O'.M. O'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini shakllantirishning nazariy-metodik asoslari.....	24
Qurbonova Sh.N. Boshlang'ich sinf texnologiya darslariga intensiv ta'limni tashkil etish.....	29
Yusufzoda Sh.Y. Alifbe davrida yozuv texnikasini o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari.....	34
Жаббарова А.Ш. Бошланғич синфларда бадий асар эпизодлари масаласи ва эстетик таҳлил методлари.....	38
Пўлотова Ю. Бошланғич синф она тили ва ўқиш дарсларида ахборот-ресурслар интеграциясини таъминлашда ўқитувчи компетентлиги	41
Хайруллаева Д.Н. Методика обучения примерам этнопедагогике на уроках родного языка и читательской грамотности в 1-2-х классах	47
Пўлотова Ю. Бошланғич синф она тили ва ўқиш дарсларида ахборот-ресурслар интеграцияси методик муаммо сифатида	51
Тошпулатова Н. Илмий дунёкарашни шакллантириш ва ўқувчиларни ақлий тарбиялаш (аниқ ва табиий фанлар мисолида)	57
Самиев А.С. Ўқувчиларни маънавий-ахлоқий тарбиясини такомиллаштиришда ҳадис намуналаридан фойдаланиш.....	62
Салохитдинова Н.М. Бошланғич синфларда интеграциялашган таълимни такомиллаштириш технологияси.....	68
Самиев А.С. Ҳадис маънавият ва ахлоқ.....	73
Имонова М.Б. Характер акцентуациясининг деструктив хулқ шаклланишига оиланинг таъсири.....	79
Джуракулова А.Х., Холикмуродова Д.Х. Бошланғич синф ўқувчиларнинг коммуникатив қобилиятларини шакллантиришнинг психологик ва педагогик хусусиятлари.....	82
Xidirova M.M. O'quvchi-yoshlarning ma'naviy tafakkurini shakllantirishda oila va mahallaning o'rni.....	86
Yorboboyeva I.B. O'smir yoshdagi o'quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik imkoniyatlari.....	91
Kadirova D., Abdullayeva D. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashining nazariy asoslari.....	95
Xoliyorova D.N. Boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslik fanlarini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanishga doir ilmiy-nazariy qarash.....	101

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Qosimov F.M., Qosimova M.M. Arifmetik masalalarni yechishda tavsiya etiladigan ilmiy-usuliy mulohazalar.....	104
Умарзода Ш.А. “Алгоритмик тиллар ва дастурлаш асослари” фанини ўқитишда замонавий технологиялардан фойдаланиш.....	109
Абдуқодиров Ж.Б. Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларини физика фани оптикка бўлимига доир ностандарт масалаларнинг мазмун-моҳияти билан таништириш	112

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Jo‘rayeva M.S. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilish jarayonini rivojlanishi, tadqiqiy bilish va refleksiv faoliyatlarini rivojlantirish	117
Xolmirzayeva Sh.M. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida steam ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali bolalarda ijodiy faollikni rivojlantirish	120
Tursoatova G.T. Syujetli rolli o'yinlar orqali maktabgacha o'rta yosh guruhi bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirish	124
Xurramova S.A. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarni musiqa yordamida ma'naviy va axloqiy sifatlarini rivojlantirish yo'llari.....	127
Payg'amova J.T. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda aqliy qobiliyatlarini o'stirishda xorij tajribalaridan foydalanish.....	131
Boymurodova S.E. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijtimoiy hissiy rivojlanishi	134
Jo‘rayeva N.Z. Maktabda va oilada mehnat tarbiyasini rivojlantirish orqali tadbirkorlik motivatsiyasini shakllantirish	140
Нигматуллаева М.И. Катта ва тайёрлов гуруҳларда коммуникатив ўйинларни ташкил этиш орқали мулоқот кўникмасини шакллантириш	145
Хайруллаева Ш.А. Дидактик ўйинлар орқали болаларни мустақил фикрлашга ўргатишдаги методик имкониятлар.....	151
Пардаева Р.Э. Мактабгача ёшдаги болалар мулоқот маданиятини ривожлантиришнинг ижтимоий психологик хусусиятлари.....	156
Ramatjonova G.B. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ota-onalarning mashg'ulotlar orqali pedagogik-psixologik savodxonligini oshirish	162
Samadova Y.T. Maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarni ijtimoiylashtirishning ta'limdagi o'rni va roli	166

ФИЗИКАЛЬҚ ТӘРБИЯ ҲӘМ СПОРТ

Махмудова М.Қ. Ёшларни жисмоний тарбия ва спортга жалб қилишда олимпия таълимининг аҳамияти.....	170
Вахриев J.E. Yosh bokschilarning jismoniy tayyorgarligini amalga oshirish metodlari va ularning mazmuni	175

4. Jonpulatovna S. M., Qizi I. M. F. Improve Pupils' Knowledge and Personal Qualities Through Educational Tools in Elementary Mathematics Classes //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 5. Ibrohimova M. Boshlang'ich matematika darslarida arifmetik amallarni qollashda talim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
5. Ibrohimova Mohichehra Furqat qizi. Problems That Arise In the Classroom in the Educator and Their Optimal Solutions . European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) Volume 2 | Issue 2 | ISSN: 2795-8612

REZYUME

Bu maqolada boshlang'ich sinflarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi haqida fikr yuritilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashini va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish uchun turli ko'rinishdagi topshiriqlar bilan ishlash haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается методика развития логического мышления в младших классах. Для развития мировоззрения и логического мышления младших школьников задумывалась работа с разнотипными заданиями.

SUMMARY

This article discusses the method of developing logical thinking in elementary grades. To develop the worldview and logical thinking of primary school students, it was thought about working with different types of assignments.

O'QUVCHILARNING PRAGMATIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

Olloqova O'M.

Buxoro davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetensiya, pragmatik kompetensiya, ona tili va o'qish savodxonligi, diskursiv, funksional, Milliy o'quv dasturi, o'quv topshirig'i.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, прагматическая компетентность, родной язык и читательская грамотность, дискурсивная, функциональная, национальная учебная программа, учебная задача.

Key words: communicative competence, pragmatic competence, mother tongue and reading literacy, discursive, functional, National Curriculum, educational task.

KIRISH. Ma'lumki, bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilari katta axborot oqimi sharoitida ta'lim-tarbiya olmoqdalar. Shunga ko'ra, zamonaviy boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldida o'quvchilarni olayotgan ma'lumotlarni tizimlashtirish va yangi ma'lumotlarni qayta ishlashning samarali vositalaridan foydalanishga o'rgatish vazifasi turibdi. Shuning uchun axborotni yuqori darajada o'zlashtirish orqali ularda bilim, ko'nikma, malaka va zarur kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradigan turli xil usul va vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bolaning tafakkuri, ijodiyliigi, tanqidiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim tizimida boshlang'ich sinfni tugatayotgan har bir o'quvchi shaxsiga bir qancha zamonaviy, shu jumladan, uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi nuqtayi nazaridan yangi talablarni qo'yadi. Binobarin, o'qitishning maqsadlari, vazifalari, mazmuni, uslublari va usullarini qayta ko'rib chiqqan holda ishlab chiqilgan yangi milliy dasturning qabul qilinishi

bu boradagi ishlarning samarasini oshirishda asosiy dasturulamal bo‘lib, o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, aqliy va ijodiy salohiyatining yanada yuqori bo‘lishida xizmat qiladi.

MUHOKAMALAR. Bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uning muloqot jarayoniga kirisha olishida, o‘z fikrini yanada tushunarli, batafsil ifodalashida, turli xilnutq vaziyatlarida o‘zini yo‘qotib qo‘ymasligida aniqroq namoyon bo‘ladi.

O‘quvchilarda nutqiy qobiliyatlarni rivojlantirishda ona tilining o‘rni va ahamiyati beqiyos. Umumiy o‘rta ta’limda ona tili fani o‘quvchi shaxsida fikrlashga, o‘zgaralar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirishni ko‘zda tutadi [1, 29].

Kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda davlat tili hamda xorijiy tillarni o‘zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, yozma va og‘zaki ravon bayon etish malakalarini shakllantirishda ona tili bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo‘llash malakasini rivojlantirish lozim [1, 29].

Kommunikativ kompetensiya- ijtimoiy vaziyatlarda eng avvalo ona tili qoidalari asosida hamda birorta xorijiy tilda o‘zaro samarali muloqotga kirisha olish, muloqotda muomala madaniyatiga rioya qilish, ijtimoiy moslashuvchanlik, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatini ko‘zda tutadi [2, 31].

Ma’lum yosh davrida bola so‘zlarni aniq talaffuz qilishi, grammatik jihatdan to‘g‘ri jumlar tuzishi va muayyan atamalarni qo‘llashi mumkin, ammo u pragmatika qoidalariga rioya qilmasa, ya’ni nutq vaziyati haqida hech qanday tasavvurga ega bo‘lmasa, muloqotda muammolar paydo bo‘lishi mumkin. Bunday holatning oldini olish uchun o‘quvchida pragmatik kompetensiyani takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Pragmatik kompetensiyasining mazmun-mohiyatini tushunish uchun eng avval pragmatika tushunchasini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Pragmatika va pragmatik kompetensiya E.G.Azimov va A.N.Shukinlarning “Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам)” nomli kitobida quyidagicha ta’riflangan: Pragmatika yunoncha “pragma” so‘zidan olingan bo‘lib, “harakat”, “ish” degan ma’noni bildiradi. Pragmatika tilshunoslikning nutqdagi til shakllarining ishlashini o‘rganadigan bo‘limi, ya’ni nutq, so‘zlovchi va kontekst o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadi.

Pragmatikaning nazariy asoslarini bir qancha chet el tilshunos faylasuflari B.Rassell, J.Ostin, J.Searle kabilar o‘rganganlar.

Pragmatika o‘z sohasi doirsida bir qancha til bilan bog‘liq muammolarni tadqiq qiladi. Xususan, nutq faoliyatlarining tuzilishi va tasnifi, so‘zlarni izohlash, nutqiy munosabat shakllari, nutq qoidalari, taktikasi va turlari va boshqalar.

U nutqni kommunikativ va pragmatik maqsadga muvofiq qurish qobiliyatida ifodalanadi.

Tilshunoslikda pragmatik kompetensiya - bu kontekstga mos ravishda tildan samarali foydalanish qobiliyatidir. Pragmatik kompetensiya ko‘proq umumiy kommunikativ kompetensiyaning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Ushbu atama 1983-yilda sotsiolingvist Jenni Tomas tomonidan kiritilgan. U “Madaniyatlararo pragmatik muvaffaqiyatsizlik” maqolasida pragmatik kompetensiyani “Ma’lum bir maqsadga erishish va tilni kontekstda tushunish uchun tildan samarali foydalanish qobiliyati” deb ta’riflagan.

Bu atama dastlab 1938-yilda Morris til falsafasiga kiritgan, lekin bu sohadan sotsiolingvistika va boshqa tub fanlar bilan bog‘liq bo‘lib rivojlandi. Hozirgi vaqtda ushbu atama ikkinchi va chet tilini o‘zlashtirish va o‘qitish sohasida keng qo‘llaniladi, ayniqsa kommunikativ kompetensiyaning umumiy kontsepsiyasining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Pragmatik kompetensiya tushunchasi dastlab Xomskiy (1980) tomonidan “turli maqsadlarga muvofiq (tildan) to‘g‘ri foydalanish shartlari va usullarini bilish” sifatida ta’riflangan.

Pragmatik kompetensiya tilning asosiy vazifasi – kommunikativni o‘rganishda muhim o‘rin tutadi.

Pragmatik kompetentsiya, birinchi navbatda, kommunikativ qobiliyatning amaliy tomoni bilan bogʻliq. Pragmatik kompetensiyaga muvofiq, oʻquvchilar zarur kommunikativ vazifalarni bajaradigan lingvistik bilimlarga ega boʻlishlari kerak.

Pragmatik kompetensiya har xil turdagi kommunikativ vazifalarni bajarishning muhim tarkibiy qismidir. Buni quyidagi chizma orqali koʻrish mumkin.



1-chizma. Pragmatik kompetensiyaning tarkibiy asoslari.

Zamonaviy metodologiya shuni koʻrsatadiki, pragmatik kompetensiya, oʻz navbatida, quyidagi tarkibiy qismlarni oʻz ichiga oladi:

Diskursiv - ogʻzaki va yozma nutqda semantik va mantiqiy muloqotni qurish va tushunish qobiliyati. Bundan tashqari, ushbu komponent muloqot sharoitlari, kommunikativ vazifa va soʻzlovchining maqsadi asosida fikrni ifodalashning toʻgʻri vositalarini tanlash qobiliyatini oʻz ichiga oladi.

Mahalliy tadqiqotchi Sh.P.Rahimova diskursiv kompetensiyaga quyidagicha taʼrif beradi: “Diskursiv kompetensiya - bu oʻqish va tinglash jarayonida matnlarning har xil turlarini tushunish asosida ogʻzaki va yozma nutqda turli funktsional uslublarning yaxlit, izchil va mantiqiy bayonotlarini (muloqotlarini) qurish qobiliyatidir.

Diskursiv kompetensiya - bu maʼlum bir tilda gaplarni tushunish va yaratish qobiliyatini bildirish uchun ishlatiladigan atama [9].

Funksional - vazifalarni hal qilish, kerakli maʼlumotlarni topish, maʼlum bir mavzu boʻyicha oʻz fikrini bildirish, shuningdek, suhbatdoshni muloqot harakatiga undash yoki uni biror narsaga ishontrish qobiliyatini oʻz ichiga olgan kommunikativ maqsadga erishish qobiliyati [4, 163].

NATIJALAR. Boshlangʻich sinflarda ona tilini oʻqitishning pragmatik tomoniga yetarlicha eʼtibor berilmasa, oʻquvchilar maʼlum bir vaziyatda muayyan kommunikativ vazifani toʻgʻri va aniq bajara olmasligiga olib kelishi mumkin.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida pragmatik kompetensiyani takomillashtirish ularda tilining meʼyorlari va qoidalari bilan bogʻliq holda hamda kommunikativ vazifaga qarab foydalanish qobiliyatini taʼminlaydi. Bundan tashqari, oʻquvchilarning ushbu kompetensiyani yetarli darajada egallashlari, ogʻzaki muloqot jarayonida suhbatdoshi bilan toʻgʻri aloqani oʻrnatish imkoniga ega boʻladilar.

Pragmatik kompetensiyaning shakllanishi oʻquvchilarning muloqot shakli va shartlariga qarab zarur uslubiy, leksik va grammatik vositalarni tanlash qobiliyati, shuningdek, ijtimoiy-madaniy toʻgʻriligi bilan dalolat beradi.

Boshlangʻich sinf ona tili va oʻqish savodxonligi darsliklaridagi bir qancha mavzular oʻquvchilarning pragmatik kompetensiyasini shakllantirish uchun asos boʻladi. Milliy oʻquv dasturi asosida yaratilgan bu darsliklar oʻzining zamonaviyligi, oʻquvchilarda nutq malakalarini shakllantirish imkoniyatining kengligi, taʼlimga raqamli texnologilarni keng joriy qilishni talab qilishi bilan ajralib turadi. Mazkur darsliklar oʻquvchilarning tafakkurini boyitish, tanqidiy fikrlashga oʻrgatish, mavjud muammolar yuzasidan har tomonlama mulohaza yuritish, oʻz fikrini erkin bayon qilish, ogʻzaki va yozma nutq mazmunini ongli tushunish, matnni tahlil qilish koʻnikmasini rivojlantirish yoʻnaltirilgan.

2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi 1-qism darsligidagi 2-bo'lim "Maktabim – ikkinchi uyim" deb nomlangan bo'lib, bu o'lim orqali o'quvchilarnig pragmatik kompetensiyasini shakllantirish uchun asos bo'la oladi. Mazkur bo'limda berilgan matn va topshiriqlar o'quvchilarni kreativ fikrlashga, o'z fikrini erkin bayon qilishga, hikoya tuzish jarayonida voqea-hodisalarning sabab va oqibat bog'lanishini to'g'ri ifodalay olishga o'rgatadi.

Milliy o'quv dasturiga asosan o'quvchilar ushbu bo'lim orqali quyidagilarni o'rganishlari kerak:

- berilgan matn tarkibidan ma'nolari yaqin bo'lgan so'zlarni ajratish, ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash;

- maktabdagi shaxs va narsalarga qanday munosabatda bo'lish bilan bog'liq audiomatn tarkibidagi ayrim so'zlar tahlil qilish;

- matn tarkibidagi xabar ma'nosini ifodalovchi gaplarni ajratish;

- matn mazmuni bo'yicha berilgan savollarga javob berish, matnning xulosasi va g'oyasini aniqlash, ayni shu g'oyani qaysi so'z va birikmalar tashiyotgani haqida taxminlarni ilgari surish;

- maktabda o'zini tutish, kiyinish odobi, oshxonada gigiyena va axloq-odob qoidalariga rioya qilish bilan bog'liq matn ustida ishlash;

- atrofdegilar bilan muloqot qilish, muloqot qoidalari (hurmatni ifodalovchi ohang va so'zlarni qo'llash)ga rioya qilgan holda mavzu bilan bog'liq fikrlarini ifodalash;

- mavzu bilan bog'liq vaziyatlar aks etgan rasm asosida 3 yoki undan ortiq gap tuzish; matndagi (asardagi) sabab va oqibat bog'lanishlarini tushunish;

- matndan (asardan) xulosa chiqarish [1, 72].

Xususan, darslikning 16-betida maktab bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar: soat, doska, yegulik, sovrin, qalam, ruchka, o'chirgich, sinf xonasi, kitob, o'qituvchi, qo'ng'iroq, kalendar, daftar, sumka, bo'yoq kabi rasmlar berilgan. Shu rasmlar bilan bog'liq topshiriqlar berilgan. Topshiriqqa binoan o'quvchilar rasmda berilgan narsalarning birini tanlashi, u bilan bog'liq biror qiziqarli voqeani so'zlab berishi kerak. Bundan tashqari, so'zlab beradigan voqealari hech kimnikiga o'xshamasligi, juda ham ajoyib bo'lishi kerakligi aytilgan.

Mazkur topshiriqni bajarish orqali o'quvchilarda pragmatik kompetensiyaning o'z fikrini ifodalash, turli vaziyatlarni baholash, ma'lumotni yetkazish kabi tarkibiy qismlarini shakllanadi. Chunki uning tuzgan hikoyasi hech kimnika o'xshamasligi uchun u bor imkoniyati bilan harakat qiladi. U eng avvalo tanlagan rasmi bilan bog'liq vaziyatni to'g'ri baholashi kerak. Agar vaziyatni to'g'ri baholay olmasa u ma'lumotni yetkaza olmaydi, natijada esa uning hikoyasi boshqa o'quvchilarning diqqatini tortmasligi, hikoyaning ta'sir qilish chegarasi qisqarishi mumkin.

XULOSA. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida pragmatik kompetensiyani shakllantirish juda muhim, chunki uning rivojlanishi tilning leksik birliklari va grammatik tuzilishi haqidagi bilimlarni tizimlashtirish, to'ldirish bilan bir vaqtda o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Buning uchun o'qituvchi dars davomida turli usullarni tanlashi kerak.

ADABIYOTLAR:

1. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi (ona tili). –Toshkent, 2021. -252 bet.
2. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. -Toshkent 2017.
3. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: “Издательство ИКАР”, 2009. – 448 с.
4. Метелькова, Л. А., & Оганесян, Е. А. (2021). Использование ментальных карт на французском языке в формировании прагматической компетенции студентов. *Балтийский гуманитарный журнал*, 10(1 (34)), 163-166.

5. OLLOQOVA, O. (2021). ONA TILI TA'LIMIDA INTENSIV TA'LIM TECHNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 1(1).
6. Olloqova, O. (2022). УЧАЩИЕСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА ОРГАНИЗАЦИЯ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 8(8). извлечено от
7. Olloqova, O. (2022). ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TECHNOLOGIYALARINING ANAMIYATI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 22(22).
8. Olloqova, O. (2021). Эффективность Использования Информационно-Коммуникационных Технологий В Повышении Лингвистической Компетентности Учащихся На Уроках Родного Языка. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 1(1).
9. Rahimova Shahnoza Pulatovna. Chet tili yozma nutqini (yozma diskurs) rivojlantirish universitet ta'lim bo'yicha. "Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi". 2022-yil 5-son.

REZYUME

Maqolaning dolzarbligi hozirgi vaqtda boshlang'ich ta'limda ona tilini o'rganish pedagogik kommunikativ faoliyat sifatida qaralayotganligi, o'quvchilarning turli xil nutq vaziyatlarida erkin muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish bilan bog'liq. Yangi Milliy o'quv dasturiga o'tish o'quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni, shu jumladan, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi usul va uslublarni, samarali ta'lim natijalariga erishishni ta'minlash zaruratini keltirib chiqardi. Maqolaning maqsadi o'quv jarayonida o'quvchilarda pragmatik kompetensiyani shakllantirish uchun asos bo'ladigan darslikdagi mavzularni tahlil qilishdan iborat. Mazkur maqola umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

РЕЗЮМЕ

Актуальность статьи связана с тем, что изучение родного языка рассматривается как педагогическая коммуникативная деятельность в начальных классах, развитие у учащихся умения свободно общаться в различных речевых ситуациях. Переход на новую Национальную учебную программу создал необходимость внедрения в образовательный процесс инновационных технологий, в том числе новых методов и способов взаимодействия педагогов и обучающихся, обеспечения достижения эффективных образовательных результатов. Цель статьи - проанализировать темы учебника, являющиеся основой формирования прагматической компетентности учащихся в процессе образовательного процесса. Данная статья предназначена для учителей начальных классов общеобразовательных школ.

SUMMARY

The relevance of the article is related to the fact that learning the mother tongue is considered as a pedagogical communicative activity in primary education, and the development of students' ability to communicate freely in various speech situations. The transition to the new National Curriculum created the need to introduce innovative technologies into the educational process, including new methods and methods of interaction between teachers and students, and to ensure the achievement of effective educational results. The purpose of the article is to analyze the topics in the textbook that are the basis for the formation of pragmatic competence in students during the educational process. This article is intended for primary school teachers of general secondary schools.